TA’LIM SIFATINI BAHOLASH REYTINGIDA O‘QUVCHI VA TALABALAR ISHTIROKINING XALQARO TAJRIBASI

Roila Yuldoshvoyevna Xaydarova
Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanidagi
14-maktab texnologiya fani o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.10205783

Annotatsiya. *Ushbu maqola ta’lim sifting baholash reytingida o‘quvchi va talabalar ishtirokining ahamiyatini yoritish bilan bir qatorda, bunda ta’lim oluvchilarning ishtirokining xalqaro miqyosidagi tajribalariga ham nazar tashlaydi.*

Kalit so‘z va iboralar: *Ta’lim sifati, milliy so‘rovnoma, ta’lim tashkiloti, o‘quvchi, talaba.*

Аннотация. *Помимо подчеркивания важности участия учащихся в проверочной оценке образования, в этой статье рассматривается международный опыт участия учащихся.*

Ключевые слова и фразы: *Качество образования, национальное исследование, образовательная организация, ученик, студент.*

Abstract. *In addition to highlighting the importance of student participation in educational screening assessment, this article looks at international experiences of student participation.*

Key words and phrases: *Quality of education, national survey, educational organization, pupil, student.*

Bugun har qanday turdagi tashkilot uchun bozor iqtisodiyotiga mos ravishda harakat qilish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Balkim shu sababli ham ta’lim iste’molchilari uchun kurashda raqobatbardoshlikning ortishi kuzatilmoqda.

Oliy ta’lim tashkilotlari bozorning to‘la huquqli ishtirokchilari bo‘lib, ular ham xuddi boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar kabi o‘zlarining raqobatdosh ustunliklarini oshirishlari va bozorda mustahkam o‘rinlarni egallashlari zarur. Bugungi kunda har bir mamlakatda ta’lim tashkilotlari o‘z iste’molchilari uchun kurashishlari kerak. Bu kurash rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda uchraydi.

Professional va oliy ta’lim muassasalari talabalar bilan o‘zaro aloqada mijozlarga yo‘naltirilgan yondashuvlardan tobora ko‘proq foydalanmoqda. Chet elda talabalarning ta’lim sifati bilan qoniqishini o‘rganish bo‘yicha ommaviy izlanishlar keng tarqalgan jarayon bo‘lsa-da, O‘zbekistonda bu jarayonlar endigina boshlanmoqda. O‘quv jarayonini baholashda talabalar va o‘quvchilar ishtirokining xalqaro tajribasini ko‘rib chiqish, shuningdek, talabalarning ta’lim sifatidan qoniqishini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlarni rivojlantirish masalasi shu boisdan ham dolzarbdir.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o‘z-o‘zidan o’quvchi va talabalarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o‘qituvchilarning har tomonlama ta’lim-tarbiyaga e’tiborini kuchaytirishini talab etadi.

Chunki ta’limning asosiy vazifasi o‘quvchi va talabada jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo‘ladigan ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Buning uchun kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo‘lishi kerak bo‘lgan muhim ko‘nikmadir. Bu ko‘nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o‘zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari

“XXI asr” ko‘nikmalariga ega ishchilarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko‘maklashadi. Umuman olganda, bugungi o‘quvchi va talaba kelajakda hozir hatto mavjud bo‘lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishi kutilmoqda. O‘quvchi, talabada kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Bularning barchasi ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy mamlakatlardagi kabi, ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or xorijiy tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Shu maqsadda respublika xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida «Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»[1]gi qaror qabul qilindi.

Bundan tashqari bugungi kunda talabalarning ta’lim sifatidan qoniqishini o‘rganish xalqaro ta’lim xizmatlari bozoridagi tendensiyadir. Turli mamlakatlardagi tadqiqotchilar talabalarning o‘qituvchilardan qoniqish darajasi, infratuzilma, o‘quv jarayonini tashkil etish va hokazolarni o‘rganmoqda[2].

O‘quvchi va talabalarning ta’lim jarayonidan qoniqish darajasini milliy so‘rovlar orqali aniqlash tendensiyasi hozir butun dunyoda keng tarqalgan. Ijobiy misollardan biri sifatida Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi o‘tkaziladigan «Talabalar ishtiroki milliy tadqiqoti» amaliyotdir.

Mazkur amaliy tadqiqot har yili yuzlab kollej va universitetlardan ma’lumot to‘playdi, birinchi kurs talabalari va yuqori kurs talabalari o‘zlarining ta’lim olishlari va shaxsiy rivojlanishi uchun muassasalar taqdim etadigan turli dasturlar va tadbirlarda ishtirok etishlari haqida so‘rov o‘tkazadi. Natijalar talabalarning vaqtlarini qanday o‘tkazishlari va kollej/universitetga borishdan nimani olishlari haqida haqiqiy baho beradi[3].

Gollandiya har yili oliy o‘quv yurtlarining deyarli barcha talabalarini milliy so‘rovnomada ishtirok etishlarini taklif etadilar[4]. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad talabalarning ta’lim va ta’lim sifatidan qoniqishi, umuman muassasa haqidagi fikrlarini o‘rganishdir. Shu o‘rganish asosida ta’lim sifatini yanada yuqori darajada bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladigan islohotlarni amalga oshiradi.

Ushbu ma’lumotlar nafaqat kirish mumkin bo‘lgan saytlarda e’lon qilinishi, balki hisobotlarda ham shakllantirilishi muhimdir. Ommaviy axborot vositalarida ham e’lon qilinsa, boshqa xorij mamlakatlarida mazkur ma’lumotlar asosida jarayonni takomillashtirishda muhim bo‘ladi. Sifatni uzluksiz oshirish jarayoniga hissa qo‘shish uchun talabalarning fikrini professional va izchil to‘plash juda muhimdir. Balkim shunday ma’lumotlarning ommalashishi, bizning

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabr,997-son qarori, www.lex.uz

[2] Williams, Brennan, 2003; Richardson, 2005; Petruzzellis, D’Uggento, Romanazzi, 2006; Kruger, 2009; Race, 2010).

[3] NSSE veb-sayti: http://nsse.indiana.edu.

[4] NSE veb-sayti: http://www.studiekeuze123.nl/nse

mamlakatda ham joriy etilishi natijasida ta’limda sifatning yuqori bo‘lishi uchun yanada ko‘plab innovatsiyalarning tadbiq bo‘lishida xizmat qilishi mumkin.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabr, 997-son qarori, www.lex.uz
2. Williams, Brennan, 2003; Richardson, 2005; Petruzzellis, D’Uggento, Romanazzi, 2006; Kruger, 2009; Race, 2010).
3. NSSE veb-sayti: http://nsse.indiana.edu.
4. NSE veb-sayti: http://www.studiekeuze123.nl/nse
5. Jalilova D.U. Psychological And Technological Features of Increasing the Efficiency of Educational Activity of Talented Students in Presidential Schools. Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367 (https://zienjournals.com).
6. https://t.me/jalilova_dilshoda_2292
7. https://t.me/ilmiy_yordam_beraman